

“HIBAT UL-HAQOYIQ”DA TARBIYA MASALALARI

M.Bashmanov

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutining Farg‘ona mintaqaviy filiali

Annotatsiya: Tarbiya insonning insonligini ta’minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyat hisoblanadi. Tarbiasiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo‘la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta’minlaydigan qadriyatlar tarbiya tufayligina bir avloddan boshqa avlodga o‘tadi. Maqolada ana shunday tarbiya tarqatuvchi asarlardan biri haqida qisqacha to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim-tarbiya, odob, xulq, maktab, ochko‘zlik, xasislik, oqko‘ngil

EDUCATIONAL ISSUES IN “HIBAT UL-HAQAYQ”

M.Bashmanov

Fergana regional branch of Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

Abstract: Education is the most ancient and eternal value that ensures the humanity of a person. Neither an individual nor a human society can exist without education. Because the values that ensure the existence of a person and society are passed from one generation to another only thanks to education. The article briefly discusses one of such educational works.

Keywords: education, manners, behavior, school, greed, greed, kindness

Buyuk alloma A.Avloniy ta’biri bilan aytganda: “Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir”. Hayot yo‘lida birinchi masala - maktab masalasidir, donishmandlik bizga hayot so‘qmoqlarida ulug‘ saodatlarni hozirlab in’om etuvchi vositasidir. Har bir odam ikki xil tarbiya oladi: birinchi- tarbiyani o‘z hayot tajribalarini singdirish yo‘li bilan ota-ona beradi, ikkinchisi- yanada muhimrog‘i esa unga hayotning o‘zi o‘rgatadi. O‘z hayot tajribasini har tomonlama boyitmagan odamning tarbiyasi behuda. Adib Ahmad Yugnakiy tomonidan ijod qilingan “Hibat-ul-haqoyiq” (“Haqiqatlar sovg‘asi”) eski turkiy til davriga mansub. Adib o‘z xalqini madanyatli xayotga yo‘llab, ilm ma’rifatga chorlagan, ijtimoiy hayotdagi iqtisodiy tengsizliklarga qarshi fikr bildirgan. Ijtimoiy hayotdagi ziddiyatlarni, tengsizliklarni, ahillik (saxovat), xarislik (ochko‘zlik) baxillik terminlari orqali aks ettirgan, imtiyozli tabaqalarni axillik orqali ijtimoiy boylikni taqsim qilishga chaqiradi, haris - ochko‘z boylarni tanqid qiladi. Adib dunyoning o‘zgarib turishi haqida shunday deb aytib o‘tgan: Bu dunyo boyligi orqasda qancha kishilar yugirmoqda, hasis ham boylikni boylik foydali deb o‘zini

qiynaydi, o'ziga zo'r beradi. Buncha molga ko'ngil qo'ymoq nega kerak, bu boylik kelsa ko'payadi, ozayadi va yo'q bo'ladi. Ko'ngildan molga oxshash suqlikni chiqar, faqat kiyim bilan qorin to'qligini ko'zla. Bu dunyo boyligi bugun bor bo'lsa, ertaga yo'q bo'ladi sen meniki degan narsalar birovlariga qoladi, barcha to'lgan narsalar ozayadi, yemiriladi butun obod yerlar oqibatida harob bo'ladi. Ko'rgin bu dunyo sirtidan bu kishiga juda ko'rkamdir, ichki tomoni esa minglab yoqimsiz narsalardan iborat. Dunyoning ko'rkli tashqi go'zalligini ko'rib, unga ko'ngil qo'ymoq xatolarning boshlanishidir. Ilm- ma'rifat jamiyat taraqqiyotida eng zarur masalalardan biri tarbiya ekanligi takidlangan. Tarbiya - global muammolardan biri bo'lib bizdan oldingi ajdodlarimiz Abdulla Avloniy, Alisher Navoiy, Fitrat va hakazolarning asarlarida ham muhim ahamyat kasb etgan, jumladan Ahmad Yugnakiyning Hibat-ul-haqoyiq asariga to'xtaladigan bo'lsak unda tarbiya haqida keng ko'lamlil va yorqin tarzda nomoyon etgan. Tarbiya saodat, baxt, ulkan zafarlar yo'li, tarbiyali kishi qimmat baxolik dinorga o'xshaydi, bilimsiz ya'ni (johil) kishi mevasiz daraxt kabidir. Tarbiyali odam bilan tarbiyasiz odam hech qachon teng bo'laolmaydi nega deganda ularni o'ylashda, yurish turishida, nutqida, fikrlashida, hayotga muhabbatida umumanni olganda dunyoga qarashi o'zgacha. Tarbiyali va tarbiyasiz odamni solishtiradigan bo'lsak: tarbiyasiz odamga bir so'z bilan aytganda dunyoni suv bossa o'rdakka ne g'am deganday gap, tarbiyasiz ya'ni bilimsiz kishi ilimning qadrini bilmaydi, to'g'ri so'z ma'nosiz tuyiladi, qanday ish bo'lmasin uning nazdida o'ng ko'rinadi, uning so'zlagan nodon so'zlari bir kun boshiga balo yog'dirishi mumkin, ular dunyoga xirs qo'yib dunyoni go'zalliklarini va barcha ajoyibotlarini boyliksiz tasavvuriga ham sig'dirolmaydi. Tarbiyali odam men kimman? qanday inson bo'lishim kerak ? kimlargadir foydam tegayaptimi? Degan savollar beradi va o'ziga maqsad yo'nalish qo'ygan tarzda hayotini ijobiy tarzda davo ettiradi. Tarbiyali odam mol dunyoga, o'tkinchi dunyoga hoy- havasga berilmaydi, hayotda ham boshqalarga o'rnak ya'ni ideal shaxs bo'lishga, komil inson darajasiga yetishishga harakat qiladi, har bir so'zni, har - bir ishni har- bir qadamini va umrining bir daqiqasini ham bekorchi narsalarga emas balki foydali va samarali sarflaydi. Tarbiyali odam hech qachon kam bo'lmaydi chunki ularda tunganmas boylik - ya'ni ilm bulog'i qaynayveradi, qaynayveradi. Asarda keltirilishicha: bilimli xotin kishi- er kishidir, bilimsiz erkak - xotin kishidir. Ilimli kishilarning nomi mashhur bo'ladi, bilimsiz kishilar esa tiriklayin o'ldi hisob va bu unga ko'rgulikdir, bilimli kishi o'lsa ham uning nomi o'chmaydi, ilimsiz kishining o'zi hayot bo'lsa ham oti o'likdir. Bilimning biri bilimsizning minggiga teng, ilimli tabiyali kishi ilimning qadriga yetadi. digan tarbiya iymoniy tarbiyadir, bu tarbiya har bir inson uchun juda muhim hisoblanadi, bola dunyoga kelibdiki uning o'ng qulog'iga takbir, chap qulog'iga azon aytiladi bu ota - ona ning zimmasidagi burchidir. Ulamolarimiz aytishganiday, «la ilaha illalloh» kalimasini bolaga yoshligidan o'rgatgan odam hoh ota - xoh ona yoki

boshqa yaqinlari kim bo‘lishidan qat’iy nazar unga juda katta savob yoziladi va yana shariati aynda aytganiday ilmi axloqning asosi tarbiya o‘chog‘idir bolaning salomati va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmak, yaxshi xulq o‘rgatmak yomon xulqlardan asrab o‘sturmakdir, tarbiya qiluvchilar tabib kabidir, tabib bemorni davolagani kabi tarbiyani bolaning vujudiga yaxshi xulq poklik deb singdirmoq lozim. “Har bir millatning saodati, davlatning tinch va rohati, yoshlarning tarbiyasiga bog‘liq”dir deyilgan. Bolangizni yetti yoshida namozga o‘rgating, agar o‘n yoshida o‘qimasa uringiz.

Tarbiyali kishi nimalarni so‘zlaydi, odobning boshi tildir uni tiymoq zarur. Tilingni tiy tishing sinmasin oz so‘zlasang ham soz so‘zlagin ko‘p vavsayverma. Tili bo‘sh, zahar kishi aqli yetuk bo‘ladimi? Til va so‘z bo‘shi ko‘p kishilarning boshini yeydi. Tarbiyasiz kishining tili o‘ziga dushman, ko‘p kishilarning qoni til tufayli to‘kiladi. Ko‘p so‘zlaganlar ichida o‘kinganlar ko‘pdir, tilni tiyganlar ichida orasida o‘kingan bormi. Kishi boshiga tushgan har qanday ish uning tili tufayli sodir bo‘ladi, bu til tufayli ayrimlar yaxshilik, ayrimlar yomonlik ko‘radi. Tarbiyasizlikning ya’na bir belgisi xarislikning zarari haqida takabburlikni boshidan oshirib tashla, tavozega qattiq amal qil, unga o‘zingni yaqinlashtir. Zero tangri taolo aytganiday : ikki toifa kishilarning ibodatini qabul qilmayman, birinchisi kibrililar, ikkinchisi gina saqlovchi kishilar. Takkabur qilig‘i barchaning tilida nafrat qo‘zg‘atadi, muloyimlik ezgu narsadir, kimda -kim manman deb o‘zini baland tutsa, uni na xalq, na tang ri sevadi, dunyo molini tomoman to‘plagan kishi uni yeya olmay o‘lip ketadi, kibrilik libosini kiyib, ko‘ksingni zalqqa kerib, tiling bilan ozor berishdan saqlan.

Ilmi axloqning asosi tarbiya o‘ldug‘indan shul xususda bir oz so‘z so‘ylaymiz. Bolaning salomati va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmak, tanini pok tutmak, yosh vaqtidan maslakini tuzatmak, yaxshi xulqlarni o‘rgatmak, yomon xulqlardan saqlab o‘sdurmakdur. Tarbiya qilguvchilar tabib kabidurki, tabib xastaning badanidagi kasaliga davo qilgan kabi tarbiyani bolaning vujudidagi jahl maraziga «yaxshi xulq» degan davoni ichidan, «poklik» degan davoni ustidan berub, katta qilmog‘i lozimdur. Zeroki, «Hassinu axloqiko‘m» amri sharifi uzra xulqimizni tuzatmakg‘a amr o‘linganmiz. Lekin xulqimizning yaxshi bo‘lishining asosiy panjasi tarbiyadur.

Axloqimizning binosining go‘zal va chiroyli bo‘lishiga tarbiyaning zo‘r ta’siri bordur, ba’zilar «tarbiyaning axloqqa ta’siri yo‘q, insonlar asl yaratilishida qanday bo‘lsalar, shunday o‘sarlar, tabiat o‘zgarmas», - demishlar.

*Yomon xo‘ tuzalmaydi darmon ila,
Ipak o‘lmas ip, rangi alvon ila.
Boqing, bir daraxt mevasidur yomon,
Bo‘lur yaxshi payvand, parvo bilan.
Bilur har kishi aslini rangidan,
Va yokim ulangandagi zangidan».*

“Ta’limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta’limdan ajratib bo‘lmaydi - bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi” - deb ta’kidlanadi I.Karimovnnng “Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch” asarida. “Shuni unutmaslik kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo‘lishi farzandlarimizning bugun qanday ta’lim va tarbiya olishiga bog‘liq”.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M.. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent. 2016.
2. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch”, Toshkent. 2008.
3. A.Avloniy. “Turkiy Guliston yoxud axloq”. Toshkent. 2004.